

**Ma'murova Durdona***FarDU filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Yunon tragik shoiri yevripidning hayoti va ijodi hamda Medeya obrazini tahlil qilamiz va ushbu asardagi muomolar ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni muhokama qilamiz.

**Kalit so'zlar:** Obraz, xarakter, antik davr, mabuda, konflikt.

Asrlar davomida o'z dolzarbligini yo'qotmay kelayotgan antik davr adabiyotining uch yirik vakili bor, ular Esxil, Sofokl va Yevripid. Rivoyatlarga ko'ra Salamin yaqinidagi g'alaba nishonlayotganda [mil.avv 480-yil]. Exsel g'olib askarlar safida bo'lgan G'alaba bayrami uyushtirilgan o'yinlarda Sofokl o'zini ko'rsatgan va xuddi shu kuni dehqon Mnesarx oilasida Yevripid dunyoga kelgan. Ammo shoir tiriklik chog'ida yunon xalqi oldida shuhrat va qadr topmadi. Zamondoshlari uning asrlarini ,ayniqsa, komediyalarini ko'p tanqid qilishgan. Biroq yunon tarixining keying yillarida Ellinizm davrida u o'z xalqining sevimli fojia-navis shoiriga aylangan. Hatto Exsel va Sofokl ham uning dovrug'I ostida qolib ketdi. Uning 92 ta asarlaridan 17 ta tragediyasi va 1 ta satiric dramasi bizgacha yetib kelgan.

Asarning asosiy obrazlaridan biri bu Medeyadir. Ya'ni qadim-qadimdan ayol go'zallik, ezgulik, mehr-muruvvat, bag'rikenglik kabi bir qator ezgu tushunchalar sohibi sifatida tasavvur qilinadi. Biroq uning qalbi olovga aylansa, dunyoga o't ketishi ham rost gap. Shu sababdan bo'lsa kerak dunyo faylasuflari barcha bilimlarni egallagani holda ayol olamini tushunolmay o'tganlarini hayrat bilan bayon etadilar. “Medeya” tragediyasining bosh qahramoni Medeya obrazi ayol olamining murakkab jihatlari tasvirlanganligi bilan ajralib turadi. Sababi Medeya o'zida muhabbat va nafrat, jasorat va qasoskorlik, do'stlik va dushmanlik kabi qarama-qarshi tushunchalarni aks ettirgan murakkab xarakterdir.

Har qanday ayol o'ziga nisbatan suyuqli insonidan doimo e'tibor talab qiladi. Ularga davomiy ravishda mehr berilib, ma'lum vaqtdagina bu holat to'xtab qolsa u o'zini keraksiz, ortiqcha his qila boshlaydi. Biz buni Medeya obrazi misolida his qilishimiz mumkin. U Yasonni xiyonatini bilgan ondanoq boshqa qiyofaga kirishni boshlaydi, u o'zini Yasonga nisbatan keraksizdek his hiladi. Aslida ham Yason boylik, mol-mulkni deb o'z oilasi, farzandlari, ayolidan voz kechadi. Asarda Yason birmuncha bosiq, beg'am kishi sifatida tasvirlanadi. Medeya esa har bir ayolda kuzatilgani kabi sho'x, shaddod hamda xalqimiz iborasi bilan aytganda “ushlagan joyini kesadigan” ya'ni maqsad qildimi, oxirigacha boradigan shaxs sifatida tasvirlanadi. Aslini olganda ham ayollar o'z orzu-istaklariga yetishish uchun har qanday yo'lda sabrli, kuchli iroda sohibalari ekanliklarini isbotlashadi. “Medeya” tragediyasida Medeya orqali ayol shaxsi va uning ichki olamida ro'y berayotgan hissiyotlarni ham ko'rsatib berishga harakat qilingan. Asar mohiyati va voqealar rivoji esa uning janriga ham bevosita bog'liq. Ayol obrazi

yordamida shavqatsizlik, qahramonlarning fojeali taqdiri ko'rsatib berilgan. Aslini olganda ham tragik asar ma'lum bir fojeali voqea asosida yaratiladi. Asarda hamma narsa o'tkinchi degan g'oya ham ilgari suriladi, chunki muhabbatni deb Medeya qancha narsadan voz kechmadi deysiz, u shu bilan barobarida o'zligini ham yo'qotib qo'ydi. Tragediyani muhabbat va nafrat dostoni desak ham bo'ladi. Avval muhabbat paydo bo'ldi, keyin esa nafrat. Bunga birinchi galda boylikka ruju qo'yishlik sabab bo'ldi. Asarda Medeya o'z sevgisiga munosib javob ololmagani va o'z intiqomini yenga olmagani uchun o'zi ham, o'z g'alar ham va hatto farzandlar ham qasosning qurboni bo'lishdi.

Tragediyada Medeyaning qalbida qasos o'ti hukmron, lekin shunda ham Medeya aqli ayol qilib tasvirlangan. Bunga misol tariqasida quydagi jummalarni keltirishimiz mumkin:

Madorsiz qoladurg'on bo'lsam mabodo,  
Qismatim sho'r ekan, deya qilich tutaman  
Va ro'y rost qilajakman ularni bismil,  
Bul g'arazdan qaytmagayman, robbano shohid,  
Ko'zimga tik boqsa hamki mash'um Azozil...

Medeya erining xiyonatidan keyin olamda o'zini yolg'iz his etadi (aslida ham uning eri Yason va farzandlaridan boshqa yaqini qolmagan edi), lekin shunga qaramay har kim qilmishiga yarasha javob berishi kerak dera eri Yasondan (farzandlarini o'ldirish orqali – shu bilan u erini vijdon azobida qiynalishini xohlagan), podshoh Kerontdan va uning qizidan qasos oladi. Medeya Yasondan birorta ham zurriyot qolmasligini istagan edi, farzandlarini o'ldirish bilan birga Medeya Yasonni bir umrga baxtiqaro qiladi.

Bundan tashqari tragediyada yunon mifologiyasining ta'sir jihatlarini ham ko'rish mumkin. Medeyaning bobosi Xelios (Quyosh) yuborgan ikki ajdaho qo'shilgan arava osmonga ko'tariladi. Uning oyoqlari ostida esa Yason ko'ra olmagan, suyuqli farzandlari bor edi. Ajdarholarni jahl timsolida ya'ni "Jahl kelganda aql ketadi" maqoliga mos ravishda ramziylikka olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda Yevripid Medeya tragediyasini yuksak mahorat bilan yozgan, chunki asar syujeti muomalar davr tanlamaydi, har bir davr uchun dolzarb masalaga aylangan va ayol obrazini juda chiroyli tarzda ifodalangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yevripid. Medeya. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010.
2. Aristotel. Poetika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
3. Murotova D. Yevripidning " Medeya " tragediyasida konflikt ko'rinishlari. - Scientific progress volume . - 2021

